

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son Oilaviy shifokorlik, jismoniy tarbiya, fuqarolar muhofazasi kafedrasining ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'yicha Ma'rifat darsi

BAYONNOMASI № 9

27.10.25 yil

Toshkent sh.

Qatnashganlar: Prof. Shamansurova E.A., prof. Agzamova Sh.A., dots.: Turdiyeva Sh.T., Ganiyeva D.K., Devorova M.B., Maxkamova G.T., Ulugov A.I., Fayziyev O.N., Butayev CH.J., Toxtayeva D.M., ass., t.f.n. Nosirova G.R., Ergasheva N.R., Abdurazakova Sh.A., ass. Karimova D.I., Koshimbetova G.K., Shayxova M.I., Jumaniyozov N.B., Tillaboyeva A.A., Toirova N.N. va kafedrada tahsil olayotgan 6-kurs talabalari



Kun tartibi: “O‘zbekiston va jahon” mavzusida Kelajak soati o‘tkazish.

Eshitildi: Darsning kirish va asosiy qismlarida mavzuning siyosiy-ijtimoiy ahamiyati, Davlat rahbari tomonidan ayni mavzuga oid amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar bayon etildi.

“O‘zbekiston va jahon” mavzusi yoshlarni zamonaviy dunyodagi global jarayonlar va mamlakatimizning ulardagi ishtirokini chuqur anglashga yo‘naltiradi. Asosiy g‘oya shundan iboratki, O‘zbekiston o‘zining boy tarixiy merosi, tabiiy boyliklari, mehnatkash va iqtidorli xalqi bilan jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashga intilmoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz xalqaro miqyosda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy islohotlar, madaniy aloqalar va ilm-fan sohasida yuksak natijalarga erishdi.



O‘zbekiston Respublikasining bugungi kunda xalqaro maydonda olib borayotgan ko‘p tomonlama munosabatlarining tayanch paradigmali va ustuvor tamoyillari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72- sessiyasidagi nutqida belgilab berilgan va mamlakatimiz ularga og‘ishmay amal qilib kelmoqda.

Prezidentimizning nutqida mamlakatimizning bu boradagi siyosatining ustuvor tamoyillari quyidagicha ifodalanadi: **“O‘zbekiston hech qanday blokka qo‘shilmaslik maqomini saqlab**

qolgan holda, ochiq muloqotga tayyordir. Biz barcha sheriklarimiz bilan tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdormiz."

Ushbu tayanch fikrga asoslanadigan bo'lsak, bugungi O'zbekistonning tashqi siyosatida, unga mos ravishda, quyidagi muhim tamoyillar asos qilib olinganini ta'kidlash lozim:

- milliy manfaatlar ustuvorligini saqlagan holda, boshqa davlatlar bilan **o'zaro tenglik asosida manfaatli hamkorlik** qilish;

- xalqaro maydonda **tinchlik va xavfsizlik**, turli mamlakatlardagi ziddiyatlarni tinch yo'l bilan hal qilish tarafdori bo'lish;

- hech qanday **harbiy bloklarga kirmaslik**, shuningdek, munozarali muammolarni kuch orqali, tahdid qilish yo'li bilan hal qilishdan tiyilish;

- tashqi siyosatning **boshqa davlatlarning ichki ishiga aralashmaslik**, teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirilishi;

- ichki davlat me'yorlariga nisbatan **xalqaro huquq me'yorlarining ustuvorligini tan olish** va barcha xalqaro huquq normalari va umuminsoniy andozalarga rioya qilish;

- uzoq va yaqin mamlakatlar bilan o'zaro ishonch asosida, ikki tomonlama va ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik qilish.

BMT Bosh Assambleyasi O'zbekiston tashabbusi bilan quyidagi Rezolyutsiyalarni qabul qildi:

- Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash

- Orolbo'yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi sifatida e'lon qilish;

- Ma'rifat va diniy bag'rikenglik;

- Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish;

- Markaziy va Janubiy Osiyoda o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash;

- Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlar rolini kuchaytirish.

Prezidentimiz tashabbuslari bilan bugungi kunda BMTning kun tartibiga quyidagi masalalar kiritildi:

- BMT va uning ixtisoslashgan tuzilmalari bilan samarali hamkorlik o'rnatish maqsadida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha ishchi guruh tashkil etish va uning doirasida "Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi – 2030" dasturini ishlab chiqish;

- "Birlashgan Millatlar Tashkiloti – Xotin-qizlar" tuzilmasi bilan hamkorlikda ayollarning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish masalalarini muhokama qilish va tajriba almashish uchun O'zbekistonda jahon xotin-qizlari forumini o'tkazish;

- BMT Bosh kotibining Suv resurslari bo'yicha maxsus vakili lavozimi ta'sis etilishi, Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratish hamda mintaqamizda qabul qilingan Yashil taraqqiyot dasturi doirasida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida "Markaziy Osiyo iqlim muloqoti"ni joriy etish;

- BMT Bosh kotibi tomonidan ilgari surilgan "Ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy himoya global akseleratori" borasidagi tashabbus doirasida BMT shafeligidagi "Ijtimoiy himoya: barqaror taraqqiyot sari yo'l" butun jahon konferensiyasini o'tkazish;

- BMT Bosh Assambleyasining "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik" rezolyutsiyasini qabul qilish.

O'zbekiston va jahon – bu ajralmas tushuncha, va yurtimizning kelajagi sizning bilim, intilish va fidoyiligingizga bevosita bog'liq. Bugungi mehnatingiz – ertangi kunimizning kafolatidir.

Kafedra mudiri, t.f.d., prof.

Ma'naviyat va ma'rifat ishlari

bo'yicha mas'ul, ass.:

Shamansurova E.A.



Shayxova M.I.

